

X.E.Abdullayeva – TDSH, talaba

KOREYADA IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYA SIYOSATIDAN SAMARALI FOYDALANISH TAJIRIBASI

Annotatsiya. Maqolada Koreya Respublikasining iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish tajribasi, Koreya davlatining innovatsion siyosati bosqichlari va vositalari tahlil qilingan hamda mazkur tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: bilimlarga asoslangan iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, davlatning innovatsion siyosati, strategik rejalashtirish, ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro innovatsion indeks, innovatsion iqtisodiyot.

Аннотация. В статье проанализирован опыт Республики Корея по инновационному развитию экономики, этапы и инструменты государственной инновационной политики Кореи и рассмотрены возможности использования данного опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: экономика, основанная на знаниях, инновационное развитие, инновационная политика государства, стратегическое планирование, исследовательские центры, глобальный инновационный индекс, инновационная экономика.

Annotation. The article analyzes the experience of Korean Republic on the innovative development of economy, the stages and instruments of innovation policy of Korean government and considers the possibilities of using this experience in the condition of Uzbekistan.

Keywords: knowledge based economy, innovative development, innovation policy of government, strategic planning, research centers, global innovation index, innovative economy.

Ma’lumki, hozirda har sohada innovatsiyalarni qo‘llash dolzarb jarayonlardan biriga aylanishga ulgurdi. Hatto bu jarayonga mamlakat rivojlanishida davlatning strategik muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu, albatta, hozirgi iqtisodiyotning “bilimlar iqtisodi” va “inson kapitali” ga asoslangani bilan bevosita bog‘liq. Sababi, innovatsiyalarni joriy etishda ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borish, umuman, ilm-fanni taraqqiy ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarda esa, albatta, davlatning o‘rni va roli katta. Mazkur jarayonni hozirda rivojlanishda Osiyo hamda butun jahonda yetakchilikka intilayotgan Koreya Respublikasi misolida tahlil etish maqsadga muvofiq. Sababi, Koreya davlati an’anaviy iqtisodiyotning asosiy sharti bo‘lgan tabiiy resurslari tanqis mamlakat bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi kunda

Xalaqaro innovatsiya indeksi (Global Innovation Index), Bloombergning eng innovatsion iqtisodiyot kabi jahon reytinglarida yuqori o’rinlarni egallagan. Xususan, Koreya Respublikasi 126 mamlakatni tahlil qilgan xalqaro innovatsiya indeksining 2018-yilgi natijalariga ko’ra 12-o’rinni¹, har yili 200 dan ortiq milliy iqtisodiyotlarni tahlil qiluvchi Blumberg innovatsion indeksi (Bloomberg Innovation Index)da umumiy 1-o’rinni², uning tarkibiy bo’linmalardan esa ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari va qo’shilgan qiymatli ishlab chiqarish bo’yicha 2-o’rinni, samaradorlikda 18-o’rinni, yuqori texnologik ishlab chiqarish zichligi bo’yicha 4-o’rinni, tadqiqotcilarni jalb etishda 7-o’rinni hamda patentlar faolligi bo’yicha 20-o’rinni egallagan³. Mamlakat bu kabi natijalarga erishishining asosiy omillarini o’rganish, albatta, hozirgi kundagi dolzarb hisoblanadi.

Avvalo, Koreya Respublikasi ikkinchi jahon urushidan so’ng iqtisodiy tang ahvolda qolgan, tabiiy resurslari tanqis mamlakat edi. Ayniqsa, 1950-1953-yillardagi bo’lingan koreys davlatlari o’rtasidagi urush esa mamlakat ahvolini yanada yomonlashtirgan edi. Endi uning oldida turgan asosiy vazifa mamlakat ahvolini yaxshilash edi. Rivojlanishning dastlabki davrlari 1960-yillariga borib taqaladi. 1962-yilda Koreyada mamlakatni rivojlantirishning birinchi besh yillik rejasi qabul qilindi. Bu davrda sanoat siyosati import o’rnini bosuvchi texnologiyalar va yengil sanoat sohasini rivojlantirish hisobiga mamlakatning industrial bazasini yaratishga yo’naltirildi. Shu jumladan eksportga yo’naltirilgan texnologik siyosat, eng birinchi navbatda, chet el texnologiyalarini qabul qilish va moslashtirish hamda mamlakatda ichki texnologik asosni yaratish zarurligi aniqlandi. Ayni o’sha davrda sanoatda chet el texnologiyalarini o’rganish, moslashtirish va yaxshilash masalalari ustida faoliyat olib boradigan davlat tomonidan moliyalashtiruvchi birinchi davlat tadqiqotlari instituti – Koreya fan va texnologiya instituti tashkil etildi. Bu davrda innovatsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o’ynamadi. Asosiy o’ziga xos jihat mamlakatni sanoatlashtirish va sanoatning import o’rnini bosuvchi sohalarni rivojlantirish hamda eksportga yo’naltirilgan sohalarni kengaytirishga katta e’tibor berilganligida edi.

1967-yilga kelib esa mamlakatning ilmiy-texnologik siyosatini amalga oshirish ustida ishlaydigan Koreyaning Fan va Texnologiya Vazirligi tashkil etildi, ilmiy-texnikaviy faoliyatni qo’llab-quvvatlash tog’risidagi qonun qabul qilindi.

Bundan tashqari birinchi bosqichning uzviy davomi sifatida mamlakat iqtisodini rivojlantirishning 1967-1971- yillarga mo’ljallangan ikkinchi besh yillik

¹ <https://www.globalinnovationindex.org/analysis-indicator>

² <https://datawrapper.dwcdn.net/3hi4O/2/?abcnewsembedheight=550#embed>

³ <https://www.bloomberg.com/news/articles/2019-01-22/germany-nearly-catches-korea-as-innovation-champ-u-s-rebounds>

rejasi qabul qilindi. Ushbu rejada qonun darajasida qo‘llab quvvatlovchi asosiy sohalar belgilab olindi⁴.

Rivojlanishning keying davri 1970-1980-yillarga to‘g‘ri kelib, asosiy jarayon yirik moliya-sanoat guruhlar (chebollar)ning faoliyati hamda ularning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi edi. Mamlakat hukumati kapital talab qiluvchi sohalarni qo‘llab-quvvatlagan holda texnologik salohiyatni kuchaytirishga, tadqiqot institutlarini tashkil etishga, oliy ta’lim muassasalari tizimini rivojlantirishga va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun kadrlar tayyorlashga ham katta e’tibor qaratdi.

1972-yilda Koreya Respublikasida navbatdagi rivojlanish dasturi qabul qilindi va unda og‘ir va kimyo sanoatini, mashina va kemasozlik, neft-gaz sohasi uchun uskunalar ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlar ustuvorligi ta’minlandi.

Keying uchinchi davrda mamlakatda qayd etilgan ishlab chiqarish hajmining pasayishi, inflyatsiyaning yuqori ko‘rsatkichi hamda to‘lov balansining yomonlashuvi kabi muammolarga yechim masalalari ustida ishlandi.

1990-yildan bugungi kunga qadar davom etayotgan to‘rtinchi bosqich xususiyatlari bo‘lib Koreya hukumatining iqtisodiyotini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirgan qadamlari, tartibga solish, nomarkazlashtirish va byurokraziyani oldini olish maqsadida bir qator vazirlik va qo‘mitalar faoliyatining qayta tashkil etilishi, mamlakatning texnologik rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishi va boshqalar hisoblanadi.

Fan va texnologiyalar vazirligi — “Fan va texnologik innovatsiyalar to‘g‘risida”gi maxsus qonuni ishlab chiqqan holda, 1997-2002-yillarga mo‘ljallangan innovatsiyalarni rivojlantirishning besh yillik rejasini shakllantirdi. Bundan tashqari, ITTKI sohasida yuqori texnologiyalar milliy dasturi (HAN – Highly Advanced National Project) qabul qilindi.

1999-yilda uzoq muddatli strategik tashabbus bo‘lgan — 2025-yilga qadar Fan va texnologiyalar rivojlanishining uzoq muddatli bashorati dasturi, 2003, 2008, 2013-yillarda — Fan va texnologiyalar Bosh rejalari (Science and Technology Basic Plan) qabul qilindi.

Bugungi kunga kelib Koreya Respublikasi innovatsiya siyosatining asoslarini yuqorida keltirib o‘tilgan bosqichlarda qabul qilingan Koreya Respublikasi Konstitutsiyasi, “Intellectual mulk to‘g‘risida”, “Fan va texnologiyalar to‘g‘risida”, “Patentlar to‘g‘risida”gi kabi bir qator qonunlar hamda fan va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan besh yillik rejalari (S&T Basic Plan – 2003-2007, 2008-2012, 2013-2017) tashkil etadi⁵.

⁴ Kim Ch.K. Liberalization and Globalization Policy // Korea’s Development Policy Experience and Implications for Developing Countries. – Seoul, 2008.

⁵ <https://core.ac.uk/download/pdf/51181905.pdf>

Koreya Respublikasi konstitutsiyasining 127-moddasida davlat fan va texnologiyalarni, axborot va inson resurslarini, shuningdek, Mazkur sohadagi asosiy qonunlardan biri — “Intellectual mulk to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, unga ko‘ra mamlakatda Intellectual mulk masalalari bo‘yicha Prezident Kengashi tashkil etilgan. Kengashning asosiy vazifasi innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, sohaning istiqbolli loyihalarini aniqlash hisoblanadi. Koreya Respublikasi hukumati har besh yilda intellektual mulkni milliy innovatsion rivojlantirishning bosh rejasini tuzib chiqadi.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ko‘maklashish hamda fan va texnologiyalarni, innovatsion ilm-fanni rivojlantirish uchun asos yaratish yo‘li bilan hayot sifati, jamiyat farovonligini oshirish maqsadlarida — “Fan va texnologiyalar to‘g‘risida”gi bosh qonun qabul qilingan. Mazkur qonunga muvofiq, Koreya Respublikasi hukumati ilmiy-ijodiy tadqiqotlar va ishlanmalar hamda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda fan va texnologiyalarning rolini maksimal darajada oshirishni ta‘minlash uchun zaruriy resurslarni mobilizatsiya qilish hisobiga fan va texnologiyalar sohasida innovatsion faoliyat rivojlanishini faol qo‘llab quvvatlaydi. Innovatsiyani qo‘llab-quvvatlash orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga harakat qilishga majbur deb belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, Prezident mazkur moddada ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishi uchun tegishli maslahat kengashlarini tashkil qilishi mumkin⁶.

Mazkur sohadagi asosiy qonunlardan biri - “Intellectual mulk to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, unga ko‘ra mamlakatda Intellectual mulk masalalari bo‘yicha Prezident Kengashi tashkil etilgan. Kengashning asosiy vazifasi innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, sohaning istiqbolli loyihalarini aniqlash hisoblanadi. Koreya Respublikasi hukumati har besh yilda intellektual mulkni milliy innovatsion rivojlantirishning bosh rejasini tuzib chiqadi.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ko‘maklashish hamda fan va texnologiyalarni, innovatsion ilm-fanni rivojlantirish uchun asos yaratish yo‘li bilan hayot sifati, jamiyat farovonligini oshirish maqsadlarida — “Fan va texnologiyalar to‘g‘risida”gi bosh qonun qabul qilingan. Mazkur qonunga muvofiq, Koreya Respublikasi hukumati ilmiy-ijodiy tadqiqotlar va ishlanmalar hamda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda fan va texnologiyalarning rolini maksimal darajada oshirishni ta‘minlash uchun zaruriy resurslarni mobilizatsiya qilish hisobiga fan va texnologiyalar sohasida innovatsion faoliyat rivojlanishini faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, Koreya Respublikasining innovatsion rivojlanishida, asosan, davlatning strategik rejalashtirish siyosati, yirik moliya-sanoat

⁶ http://www.wipo.int/wipolex/en/text.jsp?file_id=214459

guruhlarining qoʻllab quvvatlashi hamda ularning strategik muhim sohalarga yoʻnaltirilganligi, ilm-fan, tadqiqot markazlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlagani va barcha faoliyatning qonuniy asoslari yaratilgani holda tashkillashtirilgani uning yuqori surʼatlarda oʻsishini taʼminlashga xizmat qildi.

Oʻzbekistonda ham innovatsion rivojlanishida soʻnggi yillarda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021-yillarga moʻljallangan harakatlar strategiyasi asosida 2018-yilning 21-sentabrida “2019-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi” qabul qilindi. Unga koʻra quyidagilar strategiyaning maqsadi qilib belgilab olindi:

- ✓ mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish;

- ✓ Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi boʻyicha jahonning 50 ilgʻor mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- ✓ barcha darajada taʼlim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz taʼlim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini taʼminlash;

- ✓ ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun taʼlim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning taʼsirchan mexanizmlarini yaratish;

- ✓ innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablagʻlar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

- ✓ boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

- ✓ mulkchilik huquqlari himoyasini taʼminlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- ✓ barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. <http://eng.kist.re.kr> (Koreya fan va texnologiyalar instituti (KIST))ning rasmiy sayti
2. <https://core.ac.uk/download/pdf/51181905.pdf>
3. Kim Ch.K. Liberalization and Globalization Policy // Korea’s Development Policy Experience and Implications for Developing Countries. – Seoul, 2008.
4. <https://www.globalinnovationindex.org/analysis-indicator>
5. <https://datawrapper.dwcdn.net/3hi4O/2/?abcnewsembedheight=550#embed>
6. <https://www.bloomberg.com/news/articles/2019-01-22/germany-nearly-catches-korea-as-innovation-champ-u-s-rebounds>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabridagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni